


# **Sariosiyoda ikki nafar yoshga yangi uy-joylar kaliti topshirildi**



Davlat rahbarining tegishli qarorlari bilan yetim va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar alohida e'tiborga olinib, ularga davlat tomonidan yordam ko'rsatish mexanizmlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy qilindi. Jumladan, "Mehr daftari" platformasi orqali ushbu toifadagi bolalarni aniqlash, ro'yxatga olish va manzilli ko'mak ko'rsatish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining «Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risda»gi qaroriga asosan joylarda ushbu toifadagi voyaga yetgan yoshlarni uy-joy bilan ta'minlash choralarini ko'rilmoxda.



Jumladan, [Sariosiyo tumanida](#) istiqomat qiluvchi, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan, davlat ta'minotiga olingan Qudratullo Latipov va Jamoliddin Boboshurovlarga yangi uy-joylar kalitlari [topshirildi](#).

Shu munosabat bilan bilan tashkil etilgan tadbirda ishtirok etgan hokimlik vakillari va jamoatchilik faollari davlatimiz tomonidan yetim va ota-onas qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarga bunday e'tiborning qaratilayotganligi "Inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasi ekanligini ta'kidlashdi.



